

MUNSHAOT USLUBIDAGI O'ZIGA XOS JIHATLAR (ASAR DEBOCHASI MISOLIDA)

Gulira'no Djalalova
TDSHU 2- kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada badiiy matn uslubi xususida so'z boradi. xususan, Navoiy "Munshaot"i uslubidagi yetakchi jihatlar tahlilga tortilgan.*

Kalit so'zlar. *"Munshaot", badiiy uslub, oliy uslub, saj', kompozitsion butunlik, istiora.*

Abstract. *This article is about artistic text style. in particular, the leading aspects of Navoi's "Munshaot" style are analyzed.*

Keywords. *"Munshaot", artistic style, high style, compositional whole, metaphor.*

Mumtoz badiiy uslub tadqiqi natijasida Navoiy ijodi oliy uslub namunasi sifatida baholanadi. Darhaqiqat, Navoiy asarlari tiliga xos so'z o'yini, obraz va ramzlar, majoz o'zgacha teran ifodalanganki, uni ilg'ash va tushunish o'quvchidan alohida bilim va tayyorgarlik talab qiladi. Har ishni maromiga yetkazish shoirning xos qobiliyatlaridandir. Xususan, Navoiy devon tuzar ekan she'riy janrlarning barchasiga namunalar bitib, turkiy tilda mukammal devonni ilk bor yaratdi. Har bir asarini kirish – debochalar bilan bezadi.

Navoiy asarlaridagi kabi kompozitsion butunlik debochalarida ham aks etadi. Ma'lumki, klassik adabiyotda aksariyat muqaddimalar hamd, na't, bag'ishlov, sababi ta'liflarni o'z ichiga oladi. E'tiborli jihati shundaki, debochalar asar umumiy g'oyasini aks ettirishda shakl va mazmun birligi xususiyatini olgan. Masalan, Navoiyning ikki til muhokamasiga bag'ishlangan asari quyidagi debocha bilan boshlanadi:

Subhonolloh ne qudrati komiladurkim, insonni "Xammartu tiynata odama biyadi arba'ina sabohan" karimasi mazmuni birla "*allam alasmoa kullaha*" qobiliyati berdi va ani "*al-mutakallim*" ismi mahzari qildi. Va to ul bu mazhariyat sharafidin jami'i maxluqotqa sarafroz bo'ldi va bu tashrif bila borisidin imtiyoz topti²⁰.

Yoki:

Mutakallimeki, arab fusahosi balog'at gulbog'in sipehr gulshanidin oshurg'onda aning bulbul *nutqi "ana afsahu"* tarannumi bila alarni *zabonbast* va da'vilari ovozasin yerga past qildi²¹.

Debochalar bayonida Navoiy asarning g'oyasi va ruhini aks ettiradigan iqtiboslar, so'z va iboralar tanlaydiki, mazkur debochalardan endigi asarning mohiyatini tushunib olish mumkin bo'ladi.

Bunday holat "Munshaot"ning muqadimmasida ham kuzatiladi:

²⁰ Алишер Навоий. Мухокамат ул-луғатайн. МАТ. –Т. 16. – Т.: Фан, 2000. – Б. 3.

²¹ Ўша асар. – Б. 4.

Hamdi mavfur ul soni'g'akim *ilmi munshiyisi sun' qalami* bila kalomi majid *inshosin ofarinish avroqig'a raqam qildi*, to ofarinish ahli aning ahkomi bila amal qilg'aylar va yaxshini yomondinu qilurni qilmasdin ilgaylar²².

Matnda *sun'* – yasash; yaratish, ish, xudo; *soni'* – ishlovchi, yaratuvchi; *mavfur* – farovon, serob; *ofarinish* – yaratish, borliq ma'nolarida (ANATIL)²³. Mazmuni: ko'plab hamdlar u yaratuvchi Xudoga-kim, ilmining yozuvchi kotibi yaratish qalami bilan Kalomi majid – Qur'on buniyodini borliq varaqlariga yozdi, to borliq ahli uning hukmi bilan amal qilsinlar, yaxshini yomondan, qilish mumkin bo'lganlarni mumkin bo'lmaganlaridan ajrata bilsinlar.

Misoldan ko'rinadiki, asar nomi va uning mazmuniga mos so'zlar kompozitsiyasi orqali debocha shakllantirilgan. Badiiyat ilmida bu usul tanosib deyiladi:

Tanosib – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at, fikrni bir-biriga aloqador, ma'no jihatidan yaqin va o'zaro mutanosib tushunchalarni bildiruvchi so'zlar orqali ifodalash²⁴.

Tanosib usuli biror asar bo'ylab mazmuniy yaxlitlikni saqlashga xizmat qiladi. Debochadagi ilk ruboiyda ham tanosib usuli davom etgan.

Ul hokimkim omdurur ehsoni,
Shahlar boshig'a nofiz aning *farmoni*,
Farmonig'a insho suvari qur'oni,
Inshosig'a e'joz kelib arzoni²⁵.

Matnda suvar – ko'rinish, suralar; nofiz – ta'sirli; e'joz – mo'jiza; arzoni – loyiq ma'nolarida. Mazmuni: u hokimning ehsoni barcha uchun tengdir, uning farmoni barcho shohlar uchun ta'sirli, farmoni inshosi Qur'on suralaridirki, bu insho mo'jizadekdir

Davomida payg'ambar na'ti keladi:

Va durudi nomahsur ul rofi'g'akim, shar'i *muftisi kilki* amri bila shariati hamid *imlosi zamon sahoiyifig'a yozildi*, to zamon eli aning ahkomi amr va nahyisi bila ishtig'ol ko'rguzib *xato* paydosidin savobi tariqig'a rosih bo'lg'aylar²⁶.

Matnda durud – duo, madh; nomahsur – chegarasiz; kilki – qamish, nay qalam; sahoiyif – varaqlar; rosih – bilag'on, imlo – yozish ma'nolarida. Mazmuni: chek-chegarasiz duo-yu madhlar u martabasi baland kishiga-kim, shari'at muftiyisi qalamining buyrug'i bilan uning maqtalغان shariati zamon sahifalariga yozildi, toki barcha zamonlar ahli uning yaxshilikka amri va yomonlikdan qaytarig'i bilan xatokorlikdan ko'ra savob yo'lining bilimdoni bo'larlar.

Hamd va na't bo'ylab joylangan *munshiy, qalam, insho, avroq, raqam qildi, mufti, kilki, imlo, sahoiyif, yozildi, xato* kabi so'zlar asar g'oyasini ifodalovchi so'zlardan mo'jaz kompozitsiya yaralgan.

²² Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. – Т. 14. – Т.: Фан, 1988. – Б. 136.

²³ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1983, 1984, 1985. IV томлик. (Сўзларнинг кейинги изоҳи ҳам шу луғат асосида аниқланди)

²⁴ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 310.

²⁵ Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. – Т. 14. – Т.: Фан, 1988. – Б. 136

²⁶ Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. – Т. 14. – Т.: Фан, 1988. – Б. 136.

Navoiy uslubidagi o'ziga xoslik majoz tariqida ko'rinadi. Xususan, isti'ora uning uslubidagi yetakchi vositalardan biridir. Zero, lirikada istioraviylik oliy cho'qqiga yetdi: tashbih eng asosiy badiiy tasvir vositasi sifatida nihoyatda faollashdi, uning mavqei kengayib, realistik lavha tipidagi o'xshatishlarning yuzlab namunalari yuzaga keldi²⁷

Hamd qismida *ilmi munshiysi, sun' qalami, ofarinish avroqig'a* birikmalari asosida Qur'on nozil bo'lishini istioraviy tarzda ifodalab bergan.

Na't qismida *shar'i muftisi kilki, hamid imlosi, zamon sahoyifi* birikmalari payg'ambar va unig hadislari xususidagi istioraviy ifodalardir.

Oliy yoki Navoiy uslubining asosiy xususiyati – undagi ichki qatlamning nihoyatda boy va rang-barangligidir. Unda turli uslubiy yo'nalishlar mujassam bo'lgan (jimdimadorlik, ulug'vorlik, mulohazakorlik, mazmundorlik, vazminlik va hokazo)²⁸.

Navoiy nasrini saj'lardan holi tasavvur qilish qiyin. Shunday ekan, bu uslubda yoqimli hushohanglikni ta'minlagan unsur saj'dir: Saj' yozma adabiyotda ham ancha keng tarqalgan san'atlardan biridir. Jumladan, mumtoz adabiyotimizda doston boblariga qo'yilgan nasriy sarlavhalarda, devonlarga yozilgan debochalarda, nasriy munojaatlarda saj' san'ati keng qo'llangan²⁹.

“Munshaot” debochasida hamd va na't qismi bir-biriga parallel konstruksiyalarda ifodalanib, saj' ham matnning ikki qismini birlashtiradi. Har ikki matnda saj'ni yuzaga keltiruvchi so'zlar quyidagilar:

| Hamd qismida | Na't qismida |
|---------------------|---------------------|
| Mavfur | Nomahsur |
| Ul soni'g'akim | Ul rofi'g'akim |
| Ilmi munshiysi | Shar'i muftisi |
| Kalomi majid | Shariati hamid |
| inshosin | imlosin |
| Raqam qildi | Yozildi |
| Bilgaylar | Qilgaylar |

Sababi ta'lif qismida ham bu ko'tarinki uslub davom etadi:

Alfozi *latofatdin muarro* va tarokibi *balog'atdin mubarro* erdi va adosi rangin *fiqarotdin namoyishsiz* va mazmuni rangin *abyotdan oroyishsiz* va muqobalada forsiy alfozning *insholari dilpisand* va makotibu *imlolari arjumand* erdi, hayolg'a andoq keldikim, turk alfozining dag'i ruq'alari hamul misol bila *bitilgay* va bu tilning nomalarini ham o'shul minval bilan sabt *etilgay*.

Xulosa o'rnida, oliy uslub egasi Navoiy asarlarining yetakchi xususiyati uning majoziyligidadir. Istioraviylik, turli ramziy ifodalar va kinoyalarga ko'plab misollar topish mumkin. Shuningdek, asarlari boshdan-oyoq yaxlit kompozitsiya hosil qilishi ulardagi ma'no jihatdan uyg'un so'zlarning tanlanishi bilan ham bog'liq.

²⁷ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2006. – Б. 122.

²⁸ Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2006. – Б. 122.

²⁹ Куронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. – Б. 266

ADABIYOTLAR:

1. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. –Т. 16. – Т.: Фан, 2000. - 442 б.
2. Алишер Навоий. Муншаот. МАТ. – Т. 14. – Т.: Фан, 1988. - 436 б.
3. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Т.: Фан, 1983, 1984, 1985. IV томлик. - 656 б.
4. Қуронов Д. ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2010. - 506 б.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2006. - 320 б.